



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI**

2025-yil 2-may

134-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

### **Toshkent viloyati hokimligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, Toshkent viloyati hokimligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy elektron tizimlaridan tezkor foydalanish hamda ish samardorligini oshirish maqsadida viloyat hokimligi ishlar boshqarmasi Ish boshqaruvchisi A.Mixmanov, viloyat hokimligi protokol xizmati bosh mutaxassisi B.Nuraliyevning bildirgilarini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Toshkent viloyati hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Toshkent viloyati hokimligining moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida viloyat hokimligi qabulxonasiga ish faoliyatida foydalanish uchun kerak bo‘ladigan kompyuter texnikalarini xarid qilish uchun 45 306,0 ming (qirq besh million uch yuz olti ming) so‘m mablag‘ ajratilsin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat g‘aznachilik boshqarmasi (M.Zaripov) ajratilgan mablag‘ bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Toshkent viloyati hokimligi (A.Mixmanov) ajratilgan mablag‘ni belgilangan tartibda maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlasin.

5. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti viloyat boshqarmasi huzuridagi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi (O.Odilov) ajratilgan mablag‘dan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatilsin.

6. Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash viloyat hokimining birinchi o'rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati  
hokimi**



**Z.Mirzayev**